

ULUG'BEK HAMDAMNING "YAXSHI ODAMLAR" HIKOYASI TAHLILI

*Farg'ona davlat universiteti
Filologiya fakulteti filologiya va
tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi
3-bosqich talabasi Safonaxon Karimova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi adabiy jarayonning zabardast vakillaridan biri, mohir romannavis, hikoyanavislikda ham munosib qalam tebratib kelayotgan Ulug'bek Hamdamning "Yaxshi odamlar" hikoyasi tahlilga olingan va uning misolida ijodkorning hikoya janridagi o'ziga xos uslubiga nazar tashlangan. Shuningdek, asardagi makon va zamon masalasi, qahramon ruhiyati va xarakteri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: hikoya, obraz, timsol, ramz, mohiyat, Rumi sintezi, o'xshatish.

Abstract: This article analyzes the story "Good People" by Ulugbek Hamdam, one of the most prominent representatives of the current literary process, a skilled novelist, who also holds a worthy pen in short stories, and examines the author's unique style in the narrative genre using it as an example. It also discusses the issue of space and time in the work, the psyche and character of the hero.

Keywords: story, image, symbol, essence, Rumi synthesis, analogy.

O'zbek hikoyanavisligi tarixidan turli hajmdagi hikoyalar mavjud bo'lsa-da, ularning salmoqli qismini muhtasir, qisqa shakllari egallaydi. Chunki hikoyaning janr xususiyati, tabiati shunday, qolaversa, u matbuotbop janr sifatida dastavval gazeta yoki jurnallar orqali o'z o'qiguvchilarini topadi. Ammo hikoyalar orasida gazeta sahifalariga sig'may, kenglikka intilganlari ham yo'q emas. Xususan, Ulug'bek Hamdam ijodida o'zining "Na'matak" mini-romanidan ham ko'ra kengroq shaklga ega bo'lgan hikoyalarga bir nechta misol keltirishimiz mumkin. Demak, hikoya epik turning eng kichik janrlaridan bo'lsa-da, o'z zahirida teran mazmun, mohiyat tashiydiganlari ham talaygina.

Kunimizda xalqimizning mashhur adibi Ulug'bek Hamdam ijodi o'ziga xos serjilo ohangiga ega. Uning she'rlari bir navo bo'lsa, romanlari boshqa kuy, hikoyalari esa tinglovchini mulohaza olamiga eltuvchi yana bir ohang. Ularni tutashtiruvchi nuqta esa ijodkorning uslubi, didi va tuyg'ular orqali inson obrazi, hayot haqiqatlarini ko'rsatishidir. Umuman olganda har qanday ijodda o'ziga xoslikni topish mumkin, albatta. Biroq har bir xoslik ham keng kitobxonlar ommasini o'ziga qarata olmasligi mumkin. Shu ma'noda, garchi Ulug'bek Hamdam tasvir uslubidagi murakkablik ayrim guruh kitobxonlarga qiyinchilik tug'dirsa-da, asarlarining mazmun ko'lamini, mavzularida milliy ruh, inson obrazlarining tasvirlash jihatidan ko'pchilikka manzur

bo'ladi. Yana bir kitobxonlar guruhi borki, ular uchun ijodkorning asarlaridagi timsollar, ramzlarni fosh etish qiziq bir jarayon, xilma-xil talqinlar esa ularni yanada mulohaza gurungiga tortadi.

Yuqoridagi kabi xususiyatlar Ulug'bek Hamdamning barcha nasriy asarlariga xos jihat hisoblanadi. Xususan, hikoya janri tasvir uslubi ham sermushohadakorlikka mutanosib holda shakllangan. Tabiiyki, o'quvchisini o'y-fikrlar ko'chasiga olib kirish uchun ijod qiluvchi ham shu ko'chadan yurishi kerak. Ulug'bek Hamdam ana shu ko'chada o'ychan, ammo dadil qadam tashlaydi. Shu o'rinda adabiyotshunos olim, Umarali Normatovning bir fikrini eslash o'rinli. Olim U.Hamdami ijodida tasavvuf adabiyoti, yanayam aniqrog'i, uning Mavlono Rumiy ijodiga yaqinligi ta'siri yaqqol sezilishini ta'kidlagan edi. Buning boisi sifatida Ulug'bek Hamdam tarjimon sifatida "Ichindagi ichindadir" asarini tilimizga o'g'irganligini keltirishimiz mumkin. Demak, ustozlar ta'kidlaganidek, adib ijodida Rumiy sintezini ko'rish o'rinli holat.

Shuningdek, "Yaxshi odamlar" to'plamiga so'zboshi yozar ekan ustoz, Xurshid Do'stmuhammad ijodkor va uning ijodiga juda aniq va chiroyli tasvir bilan ta'rif keltirgan edilar: "U.Hamdami aksari hikoyalarida odamlar, obrazlar bor, ularning ism-shariflari tilga olinsa-da, hikoya qahramonlari sifatida tuyg'ular, kechinmalar, ruhiy holatlar, ishoralar hikoya ishtirokchilari bo'lmish odamlardan-da faolroq ko'rinadilar. Ya'ni inson obrazlari orqali tuyg'ular emas, tuyg'ular orqali inson obrazi, hayot haqiqatlari talqin etiladi". Ulug'bek Hamdamning ana shunday hikoyalaridan biri "Yaxshi odamlar" asari hisoblanadi. Hikoyada insoniyatga xos bo'lgan yaxshilik fazilati ulug'lanadi va aynan o'zbek xalqiga xos bo'lgan nozik tuyg'ular ham qalamga olinadi.

Asarda voqealar bugungi kunimizda, bizning atrofimizda, bir makon va zamonda yashayotgan bir insonning boshiga tushgan savdolar haqida boradi, ya'ni bosh qahramon, Ibrohim bugunning kishisi. Ibrohimning bir o'g'il, bir qiz farzandi bor, kichkinasi bo'lmish Nasimaga "yurak parogi" tashxisi berilgan. Voqealar rivojida ota farzandining operatsiyasi uchun katta mablag'ga ehtiyoj sezib yaqinlaridan yordam so'raydi. Ammo unga na do'stiga keragida o'zining ishidan kechib yordam qo'lini cho'zgan Sotimboyning, na tug'ishgan akasining foydasi tegadi. Ibrohimning odamlar haqidagi o'y-fikrlari o'zgardi. "Nahotki, atrofimizda yaxshi odamlar qolmagan bo'lsa?!" degan savol bilan yurdi. Ibrohim - yozuvchi, avvalgi "binoyidek ishi", firmadagi ishini muhtojlikdagi do'sti Sotimga tashlab chiqadi. Mana endi hayot charxpalagi aylanib uning o'ziga ko'mak kerak bo'lib turibdi. Shu o'rinda muallif bugun atrofimizda sodir bo'layotgan, hatto ko'plab uchraydigan muammolarni badiiy jihatdan o'quvchiga asta fosh qiladi. U tasvir uslubida xalq tilidagi maqol va iboralardan ham unumli foydalanadi. Masalan, "Zoriqqanda sotilgan matohning puli ot bilan tuya bo'lmaskan-da" degan maqol orqali qahramonning ilojsizlikdagi holatini yanada tushunarliroq ifodalashga xizmat qiladi. Yoxud xalq maqollariga zid

vaziyatlarni o'ylab, qahramon xayolida yana javobi topilmagan savollar aylanaveradi. Bundan tashqari, yozuvchi Ibrohimning rafiqasi, Adolatning tasvirida ham uning nutqida o'zbek ayollari tilida uchraydigan so'zlardan foydalanadi. Ba'zan turmush o'rtog'ini tushunish, ba'zan nolish, birda kesatishlar, tanbehlar kuzatiladi.

Hikoyada bir oilaning shunday sarsonligiga sabab bo'lgan ana shu murg'akka "insofli vrachlar" tomonidan qo'yilgan yolg'on tashxisdir. Voqealar rivojida bu holga guvoh bo'lgan o'qirmon ham shifokorning xatti-harakatlaridan nafrat tuyadi. Ehtimol, xorijliklar tekshiruvga kelmaganida go'dakning sog'lom vujudiga tig' teggan bo'lardi. Bu holat bilan yozuvchi jamiyatimizda uchraydigan ayrim o'z mansabini suiiste'mol qilayotgan kishilarning kirdikorlariga oyna tutgandek bo'ladi.

Shuningdek, Ibrohimning o'g'li orqali kunimizning yana bir muammosini, adabiyot tushunchasini kitobxonga anglatishga harakat etiladi. Bolaning sodda va yolg'onsiz berilgan savollari otasini ham yana jamiyat haqida mulohazaga tortadi. Yozuvchining farzandi birgina adabiyot fanidan past o'zlashtirishi yoki adabiyotni nedan suymasligining javobi ham so'roqli. U oilasining boshiga kelgan barcha ko'rguliklarni shu adabiyotdan deb biladi. Yozuvchi hikoyada bugungi kitobxonlar haqida ham fikr berib o'tadi: "Bugungi kutubxonalar go'yo vabo tarqalgan qadimgi yurtlardek kimsasiz, qarovsiz qolgan...". Bu kabi takrorlanmas o'xshatishlar hikoya davomida talay uchraydi. Ibrohimning fikr-u xayoli esa uyasiga cho'p tiqilgan besaranjom arilarning to'zg'ib uchishiga qiyoslanadi.

Ulug'bek Hamdam ijodini ham ramzlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Aynan bizning diqqatimizdagi hikoyada ham bir nechta ramzlar bo'lib, ular ham asar mazmun mohiyatini yanada yorqinroq aks ettirishga sabab bo'ladi. Hikoyada "gavjum bozor" tasviri mavjudki, bu bizning atrofimiz, o'zi bilan o'zi qaynab toshayotgan jamiyatimizning timsolidek gavdalanadi. Qahramonlarimiz esa an shu toshqin hayotning bir joyidan o'zlariga kerak narsalarni xarid qiladilar-da yana o'zlarining chalkash o'ylari bilan ortlariga qaytadilar. Qaysidir ma'noda ular ham ana shu chin "odam" desa bo'ladigan bir kimsa topilmaydigan muhitning vakillari.

Bozordan chiqib, xaridlarni yukxonaga joylayotgan Ibrohim asabiylik va xayollar og'ushida kalitni ham yukxonada qoldiradi. Natijada qahratonda mashinasi qulflanib qoladi. Ana shunday eshikni ochishga urinishlari zoye ketayotgan bir vaqtda bir kishi kelib unga beminnat yordam ko'rsatadi va hech qanday evazlik talab etmaydi. Bu holatga guvoh bo'lgan Ibrohimning o'g'li Odiljon anchadan beri "qo'li ijodga bormayotgan" otasiga "Yaxshi odamlar" nomli hikoya yozishni aytib qoladi. Shu ma'noda Ulug'bek Hamdamga o'zining hayotida kechirganlari, yoxud kuzatishlari bu hikoyani yozishga turtki bo'lgandir degan fikr tug'iladi.

Yozuvchi asarining so'ngini ertangi kunga umid, ertaga qahramonlarni kutayotgan yaxshiliklarni ham o'ziga xos tabiatning go'zal tasviri bilan keltiradi. Bir

soʻz bilan aytganda qahramonlarimiz kelajakka ishonch bilan kunchiqqishga qarab odimladilar.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Ulugʻbek Hamdam hikoyalari yuzada turgan koʻrinish bilan chegaralanmaydi, balki asl mohiyatni anglash uchun tag zamirdagi teran maʼnolarni anglashni talab etadi. Xususan, “Yaxshi odamlar” hikoyasi ham bugungi kunimizda jamiyatimizda koʻzga tashlanadigan illatlarni fosh etadi, beminnat yaxshilikni ulugʻlaydi, yovuzlig-u jaholatni, tamagirlik-u laganbardorlikni qoralaydi. Jamiyatdagi yaxshi odamlar safida boʻlishga chorlaydi. Adabiyotdan, kitobdan voz kechmaslikka undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. U.Hamdam. Yaxshi odamlar. - Toshkent: Oltin qalam nashriyoti, 2025.
2. Bahodir Karim. Ulugʻbekning dil izhori/Uzoqdagi Dilnura. - Toshkent, 2010
3. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. - Toshkent, 2018
4. <https://share.google/4TfMFgCNulh2EOkux>